



**ARTICLE INFO**

Received: 20<sup>th</sup> April 2021  
 Accepted: 25<sup>th</sup> April 2021  
 Online: 30<sup>th</sup> April 2021

**KEY WORDS**

*gijjak, instrument, education, method, culture, marifat, narrow, bow, percussion, music, melody*

**HISTORY AND METHODS OF PERFORMANCE**

**Umarov Qahramon Shokirovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Fergana Specialized Art School

Head of the "Traditional Executive Department."

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4733114>

**ABSTRACT**

*The article describes the history of the musical instrument gijjak and its development, the basics of its origin, appearance and structure.*

**GIJAK SOZI TARIXI VA IJRO USLUBLARI**

**Umarov Qahramon Shokirovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi "Ananaviy ijrochilik bo'limi" boshlig'i

**MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 20-aprel 2021  
 Ma'qullandi: 25-aprel 2021  
 Chop etildi: 30-aprel 2021

**KALIT SO'ZLAR**

*gijjak , cholg'u, ta'lim, usul, madaniyat, marifat, tor, kamonli, zarbli, musiqa , kuy*

**ANNOTATSIYA**

*Maqolada musiqa asbobi gijjak va uni rivojlanish tarixi , kelib chiqishi chalish asoslari , ko'rinishi va tuzilishi bayon etib o'tilgan.*

Insonning irqi, millati, tili va boshqa hususiyatlaridan qat'iy nazar uning qalbiga yo'l topib, his-tuyg'ulari, kayfiyati va ruhiy holatiga serjilo nafis tovushlar vositasida badiiy obrazlar orqali kuchli emotsional ta'sir ko'rsatib, maxliyo qila oladigan kuchli tarbiya vositalaridan biri –musiqa san'atidir.

Inson qalbi doimo musiqaga oshno bo'lgan asrlar o'tsada hech bir musiqiy asbob o'z qadryatini yo'qotgani yo'q .Sababi bu kuy va navolar kuylanishi uchun hizmat qiladigan musiqiy asboblarda har qachon ham e'zozda

bo'lgan , uni chalish u haqida ma'lumotga ega bo'lish musiqa shaydolarining diqqat markazida bo'lgan. Quyida biz gijjak torli,kamonli musiqiy cholg'u asbobi haqida bilganlarimiz haqida to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

G'ijjak — torli kamonli musiqa asbobi.Uning o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, arman hamda ko'pgina sharq davlatlari jumladan Afg'oniston, Eron, Turkiya va boshqalarda keng ishlatilishida ham biz ushbu cholg'uga xos jiddiy

fazilatlar turini ko'ramiz. G'ijjak yoki kamon haqidagi ilk ilmiy ma'lumotni biz IX-asr musiqiy risolasida uchramiz. Asrlar davomida yakkanavoz soz sifatida xamda turli ansambllarda g'ijjakning keng ishlatilib kelishi esa uning ijrochilik imkoniyatlarinig to'xtovsiz rivojlanib borishiga zamin bo'ldi. G'ijjaknavoz sozandalar esa o'rta asrlardanoq katta hurmat va extirom sohibi bo'lganliklarini biz Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Bobur kabi ulug' siymolar asarlarida xamda Darvesh Ali, Buxoriy, Changiy kabi o'tmish musiqa tadqiqotchilari risolalarida ko'ramiz.

Bu xususda qiziqarli ma'lumot bor. «Ziynat al -majolis» (Ziynatlarning majlisi) antalogiyasida hikoya qilinishicha, Farobiy Ray shahrida Sohib ibn Abbod qabulida bo'lganida, vazir sharafiga o'tkazilgan ziyofatda o'zi ixtiro qilgan cholg'uda kuy ijro etadi. Tashqi ko'rinishidan kichik qovoqqa o'xshagan bu soz «g'ipchak» nomi bilan tanilgan ekan. Bu cholg'uda Farobiy uch qismli kuy ijro etib, tinglovchilarni ham yig'latgan, ham kuldirdan va hayajonga solgan ekan. G'ijjak avval ikki torli, Ibn Sino dastlabki 2 torini kvartaga sozlagan, ba'zan ashulachilarning ovozigga moslashtirib sozlashgan. Kosaning pastki qismiga tayoqcha o'rnatilib, ijrochining tizzasiga qo'yib, o'tirgan holda chalingan. Dastasi dumaloq bo'lib, kosaga yaqinlashib borgan sari ingichka ishlangan. O'sha davrda g'ijjak unison, yakka tartibda, ansambl jo'rligida ham ijro etilgan.

Kamonchasining qillari (otning dumidan ishlanadi) chalish vaqtida o'ng qo'l barmoqlari bilan tortib chalingan

Bobur zamonidan boshlab uch torli cholg'u qilingan. «Boburnoma»da aytilishicha, o'z davrining mashhur sozandasi Qulmuhammad Udiy g'ijjakka uchinchi tori

tortib, yuqori ijrochilik mahoratini namoyish etgan. Ungacha ipakdan eshilgan ikki simli g'ijjak bo'lib, 8-tadan, 11-tagacha aks-sado beruvchi qo'shimcha simli torlari bo'lgan.

Alisher Navoiyning „Majolis un-nafois“ asarida aytilishicha, g'ijjakni ijro qilish barcha saroy sozandalari uchun shart bo'lgan. O'rta asrda Alijon G'ijjakiy, Xo'ja O'zbek G'ijjakiy kabi san'atkorlar mashhur bo'lgan.

G'ijjak odatda o'rik, tut yoki yong'oq daraxti g'olasidan ishlanadi. Kosasi asosan baliq terisi bilan qoplangan bo'lib, dastasida pardalar bo'lmaydi. Kosadagi baliq teri ustiga harrak (cholg'ularda torlarni tutib turuvchi moslama) o'rnatilib, shu harrak orqali torlar quloqlarga taqiladi. G'ijjak dasta bilan kosaxonaning umumiy uzunligi 550-900 mm atrofida, dastasi dumaloq, simlarini ushlab turuvchi teri ustidagi xarragi tomon ingichkalashib borgan, g'ijjak dastasining quyi qismida musiqa ijro qilishda noqulaylik yuzaga kelgan. G'ijjak sozining sifati uning yog'och materiallariga, qoplanadigan baliq terisining hamda cholg'uga taqiladigan torlarning sifatiga, shuningdek sozgar ustaning mahoratiga bog'liq. Shuning uchun cholg'uni yaxshi saqlash, uni o'ta nam yoki o'ta issiq haroratdan ehtiyot qilish, torlarni ijrodan so'ng muntazam maxsus material bilan artib turish va torlarni o'z vaqtida almashtirib turish maqsadga muvofiq. G'ijjak ot qili tortilgan kamon bilan chalinadi, hozirgi vaqtda sun'iy qil ham tortiladi. G'ijjak milliy cholg'u asboblari orasida o'zining kuychan, yoqimli va mayin tovushi bilan ajralib turadi. G'ijjakni o'zbek, tojik va turkman xalqlari «g'ijjak», qirg'iz, qoraqalpoq, qozoq xalqlari «qobuz», kavkaz xalqlari «kemancha» deb nomlaydilar. Garchi bu asboblarning ijrochilik uslublari bir-biridan ma'lum darajada farq qilsa-da, ammo mazkur xalqlar foydalanayotgan g'ijjaklar tuzilishida deyarli farq yo'q. Shu boisdan bir millat foydalanayotgan g'ijjakdan ikkinchi millat

sozandasi foydalana oladi. G'ijjak cholg'u asbobining takomillashuvida yuqorida bayon etilgan qardosh xalqlar sozanda ustalarining ham hissasi bor.

G'ijjakning kosaxonasi ustidagi teri sovuq havoda, nam sharoitida cho'kib ketishi, ingichka simlarining ovozi noqisligi tufayli O'zbekistonda (ayniqsa Andijon)da XIX-asr oxiridan g'ijjak o'rniga an'anaviy ansambllar tarkibida skripka ishlatila boshladi. Ammo keyinchalik g'ijjak cholg'usi takomillashtirilib qayta ishlandi.

XX asr boshlarida cholg'u ijrochilik san'ati ancha yuqorilab ketdi, va undan yana keng qo'llanila boshlandi, to'rtta tor (oldin uchta bo'lgan) joriy qilindi. To'rtinchi eng yo'g'on tor kichik oktavadagi *sol* ga, uchinchi tor birinchi oktavadagi *re* ga, ikkinchi tor birinchi oktavadagi *lya* ga va oxirgi birinchi tor ikkinchi oktavadagi *mi* notasiga sozlandi. G'ijjak qaytadan ishlanib, g'ijjakning dastasi dumaloq emas, aksincha, skripka dastasidek yassi qilib ishlandi, stulga o'tirib ijro qilish uchun g'ijjak moslamasi qulaylashtirildi. Orkestrlarda chalish uchun g'ijjakning g'ijjak prima, g'ijjak alt, g'ijjak bas, g'ijjak kontra bas turlari yaratildi. Xozirda g'ijjak cholg'usi orkestrlarda eng asosiy, yetakchi vazifani bajaradi, yakkanavozlikda mashhurdir. Uning nota matni skripka kalitida eshitalishicha yoziladi.

Ushbu sozlar bugungi kunda ijrochilik amaliyotida orkestr, ansambl va

yakkanavoz cholg'u sifatida keng qo'llanilmoqda. Bu cholg'ular ko'p ovozi

musiqalar ijrosida, ayniqsa, orkestr ijrochiligida orkestrning tovush diapozonini kengaytiribgina qolmay, balki uning sifatiga, ijrochilik imkoniyatlarining kengayishiga, shu bilan bir qatorda, o'ziga xos milliy xususiyatga ega bo'lgan tovushlarning rang-barang bo'lishini ta'minlab berdi.

G'ijjak turkumining takomillashuvidan so'ng yuqorida bayon etilgan g'ijjaklarda quyidagi ijrochilik imkoniyatlari vujudga keldi:

1. Har bir g'ijjak turining o'ziga xos barqaror – professional ijrochilik holatlari (postanovka) yaratildi.

2. G'ijjak tovushlari kuchaydi va har biri o'ziga xos yoqimli tovush xususiyatlariga ega bo'ldi.

3. Sozlar *kvarta* intervalidan *kvintaga* o'tkazildi.

4. O'ng qo'l holati (postanovkasi)ning yangi professional – postanovkaga

o'tishi ijrochilik va mahorat jihatidan qulay imkoniyatlarni vujudga keltirdi.

5. G'ijjakning umumiy tovush diapozoni kichik oktava *sol* dan to'rtinchi oktava *mi* notasigacha kengaytirildi.

6. G'ijjaklarda an'anaviy ijrochilik bilan birga, nota yozuvi asosida jahon

kompozitorlari asarlarini ijro etish imkoniyati paydo bo'ldi.

O'zbekistonda g'ijjak ijrochiligining o'ziga xos uslublari, asosan, Andijon, Buxoro va Xorazm an'anaviy maktablari orqali namoyon bo'lgan. Farg'ona vodiysi hofizlik san'ati hamda surnay ijrochilik an'analari ta'sirida shakllangan Andijon maktabi (To'xtasin Jalilov, Sobirjon Siddiqov, Yunusqori Yusupov, G'ulomjon Hojiqulov, G'ulomjon Ro'ziboyev va boshqalar) mayda urg'u (aksent)lar, kuy tuzilmalarini uzmasdan chalish yo'llari, chap qo'l barmoqlari yordamida asosiy tovushda ikkinchi barmoq bilan sayqal berish, mayda forshlaglar bilan qaltiratib ijro qilish, (o'sha davr xofizlarining ashula ijrochiligida ashulalarni qaltiratib ijro qilishgan, shunga taqlid qilib g'ijjakchilar ham qaltiratib ijro qilishgan) chap qo'lining rang-barang mayda qochirim va nolalarga boyligi, kamoning ravon harakatlari ijroda o'z aksini topgan, surnayga xos qochirimlar singdirilganligi bilan ajralib turadi. Komiljon

Jabborov, Mamadaziz Niyozov, G‘anijon Toshmatov, Maxmudjon Muhammedov ijrosida „Surnay Irog‘i“, „O‘yin Munojoti“, „Dugohi Husayniy“ hamda „Kezarman“ , „Gul mavsumi“ ) kabi g‘ijjak kuylari mashhur.

Mahalliy musiqa an‘analari, Shashmaqom yo‘llari negizida shakllangan Buxoro maktabiga g‘ijjakning xuddi titrayotgan kamonni yurg‘izib sadolanishi, har pardani o‘zida to‘lqinlatib (tebranishi) tezlashishi ushbu maktabga xosdir. Buxoro g‘ijjakchilik maktabi namoyondalari Haydarqul Qorovulbegi (Buxoro amirlari saroylarida xizmat qilgan) XX-asrlarda Aminjon Ismatov, Samo Vohidov, Hikmat Ne‘matov, O‘lmas Rasulovlar ijrosida “Surnay Irog‘i”, “Bahri tavi”, “Kamon ufari”, “Zulayxo” , “Noz”, (O‘lmas Rasulov) kabi asarlar fikrimizga asos bo‘ladi.

Xorazm maktabi ijro uslubi shiddat, kamonni urg‘u bilan tortish, ayni paytda yumshoq to‘lqinlatish bilan ajralib turadi. Mazkur maktab vakillaridan Patak-g‘ijjakchi (mashhur Suyav-baxshi dastasida faoliyat ko‘rsatgan, XIX-asr), Abdulla Mijana,

Matyoqub Xarratov, Ollanazar Hasanov, Hasanboy Atayevlar talqinida Xorazm maqomlarining cholg‘u yo‘llari, surnay yo‘llari, shuningdek, „Aliqambar“, „Qalabandi“, „Xarrotiy“ (M. Xarratov), „Gech polvon“ singari kuylar mashhur.

G‘ijjak yakkanavoz cholg‘u, ayni paytda jo‘rnovoz soz sifatida ham keng qo‘llanilmoqda. Turkman, qoraqalpoq, xorazm baxshilari (masalan, Ro‘zimboy Murodov), Andijonda To‘xtasin Jalilov, G‘ulomjon Hojiqulov, Salohiddin To‘xtasinovlar o‘ziga xos jo‘rnovozlik yo‘llarini yaratishgan, 1970-yillardan boshlab g‘ijjakni yakkanavoz va milliy cholg‘u ansambli tarkibida alohida ko‘rsatish, unda o‘ziga xos kuy tuzilmalarini badiha tarzida chalish usullari Abduhoshim Ismoilov, Axmadjon Dadayev, O‘lmas Rasulov va boshqalar ijrosida ommalashgan. Zamonaviy texnika vositalari (masalan, pitsikatto – tovushni kamon bilan emas o‘ng qo‘l barmoqlar yordamida ijro qilish, qisqa cho‘zimli tovushlarni ishlatish yo‘llari) keng kirib kelib, polifoniya va polimonodiya xususiyatlaridan foydalanilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Y.Rajabiy. “O‘zbek xalq musiqasi” V- jild .Toshkent 1959 yil
2. Toshmuhamedov M. “ G‘ijjak taronalari”. – Toshkent, 1983 yil.
3. Holmuhamedov O.M. “ G‘ijjak sinfi metodikasi ”. - Toshkent, 1987 yil.
4. Toshmuhamedov M.“G‘ijjak darsligi ”. - Toshkent., <O‘qituvchi>,1995 yil.
5. Qosimov R.”An‘anaviy rubob ijrochiligi”. – Toshkent.,”O‘zbekiston”,1999 yil
6. Mannopov S. “O‘zbek xalq musiqasi madaniyati”. –Toshkent.,<Yangi asr avlodi> , -2003 yil.
7. S. Begmatov , M. Matyoqubov " O'zbek ananaviy cholg'ulari " Toshkent
8. Q.Umarov. “ An‘anaviy g‘ijjak ijrochiligi”.-Toshkent.,”Musiqasi”, 2014 yil
9. O‘.Rasulov. Qomus.info>G‘ harfi > G‘ijjak.